



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

BOSHLANG'ICH TA'LIM **SIFAT VA SAMARADORLIGINI** **OSHIRISH: STRATEGIYA,** **INNOVATSIYA VA ILG'OR** **TAJRIBALAR**

xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

TAKLIFNOMA **VA DASTURI**



20 сентябрь 2021 йил

**ТҮҮРТИНЧИ ШҮЎБА. XXI АСРДА БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ
ВА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯ
СЕКЦИЯ № 4. НАЧАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ
И ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В XXI ВЕКЕ
SECTION № 4. ELEMENTARY EDUCATION AND DIGITAL
TECHNOLOGY IN THE 21ST CENTURY**

Вақти : 2021 йил 20 сентабр, 10:00

Кириш хаволаси:

<https://us02web.zoom.us/j/5091319324?pwd=Q0ROUmdlTmNIWHZXWjFWSGhiemVxUT09>

Идентификатор конференцияси: 509 131 9324

Код даступа: 55555

**Раис - доцент, DSc Қ.Р. Тўқсанов
Котиб – доцент ф.ф.н., М.Б.Файзуллаев**

68. Boboxonova F.	O'zbekiston OTMlari kredit modul tizimiga o'tishining afzal jihatlari
69. Г.Эшмуродова	Педагогика фанларини ўқитишда модул таълимининг устувор тамойиллари
70. Эшмуродова Г.	Ўқувчиларда иқтисодий билимларни ривожлантириш босқичлари
71. Utasheva L	Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari
72. Джамилова Б.С. Набиева З.	Роль художественной литературы в воспитание малышей
73. Nigmatova M.M.	Kompyuter o'yinlarining maktabgacha yoshdagi bolalar hissiy intellektiga ta'siri
74. Қодирова М.	Олий таълимда фольклорни онлайн ўқитишга мўлжалланган платформанинг зарурий элементлари
75. Maxmudova S.X.	Lingvomadaniy til birliklarining ichki ma'no tizimi
76. Sidiqova D. Sh.	Oliygo'hlarda masofaviy ta'limdan foydalanish imkoniyatlari
77. A.K.Nisanbayeva	Pedagogik faoliyati jarayonida o'qituvchining o'z psixik holatini o'zi tartibga solish mahorati
78. Dilova N. G.	Zamonaviy ta'lim asosi - ajdodlarimizning ilmiy merosi
79. Ergasheva S.T.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirishda uyga vazifalarning o'rni
80. Ibragimova G. Ya.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarni kasb tanlashga o'rgatish texnologiyasi

**TO'RTINCHI SHO'BA. XXI ASRDA BOSHLANG'ICH TA'LIM VA RAQAMLI
TEKNOLOGIYA
СЕКЦИЯ № 4. НАЧАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В XXI
ВЕКЕ
SECTION № 4. ELEMENTARY EDUCATION AND DIGITAL TECHNOLOGY IN THE
21ST CENTURY**

**O'ZBEKISTON OTMLARI KREDIT MODUL TIZIMIGA O'TISHNING AFZAL
JIHATLARI**

DOI: 10.53885/edinres.2021.72.19.068

Feruz Boboxonova BuxDU o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz OTMLarida chet el tan olgan kredit modul tizimini tashkil etish va uning afzal jihatlari haqida so'z yuritiladi.

Аннотация. В данной статье рассматривается создание признанной за рубежом кредит модульной системы в университетах нашей страны её преимущества.

Annotation. This article discusses the establishment of foreign-recognized credit modul system in the universities of our country and its advantages.

Har bir sohaning rivoji uchun talay o'zgarish qilinayotgan bir paytda oliy ta'lim tizimida olib kirilayotgan yevropa kredit modul tizimi ko'pchilik uchun hali qisman tushunarsiz, nomidan hozircha biroz begonaroq. Yangiliklarning har qaysisi ham boshida murakkabdek tuyuladi, ushbu kredit modul tizimi agarda bizda ham aynan to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ta'lim sifatiga hamda talabalarning erkin tanlov qilishiga erishish mumkin.

Bilim va ilmning shakllanishi bevosita ta'lim tizimiga borib taqaladi. O'qituvchi saviyasi, talaba ehtiyoji, o'quv adabiyotlar mazmuni, hamda mustaqil ta'limni shakllantirishga qaratilgan infratuzilma ta'minlab beradi. Demak ilg'or kadrlarni tayyorlash, ularni mehnat bozori talablariga muvofiq raqobatbardoshligiga oshirish o'quv dargohlarida ta'lim berishga bog'liqdir.

Bizga ma'lumki hayotda ko'p narsalar o'lchov birliklarida o'lchanadi, vaqt soniyalar orqali, og'irlik kg, uzunlik metrda, suyuqlik litrda, xususan oliy ta'limning o'lchovi nima? Kredit modul tizimi bu ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlanmasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Kredit model tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi:

1. Talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash
2. Talabalar bilimni reyting asosida baholash

Kredit modul tizimi asosiy vazifalari:

- O'quv jarayonlarini modul asosida tashkil etish;
- Bitta fan, (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- Talabani bilimni reyting asosida baholash;
- Talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- Ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- Ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

Modul – bu bir nechta fan va kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismidir. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar majmui hisoblanadi.

Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video va audio ma'ruzalar o'qiydi, talabani faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'rganadi va berilgan topshiriqni bajaradi.

Modulga asoslangan o'quv dasturlari maxsus sxemada ishlab chiqiladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'quv maqsadi va vazifalari to'liq ochib berilishi
2. Talabani fan(kursni) boshlashi va tugatishidan keyin orttirishi lozim bo'lgan malakasiga qo'yiladigan talablar
3. Modul tarkibiga kirgan har bir fanning qisqacha mazmuni (syllabus) ya'ni ma'ruzalar mavzulari, seminar va amaliy mashg'ulotlar rejasi, mustaqil ta'limni baholash uchun mo'ljallangan topshiriqlar
4. O'qitishning qisqacha bayoni: ta'lim berish usul hamda vositalari
5. Bilimlarni baholashning usul va shakllaridan iborat

Kredit – talabani alohida olingan ta'lim yo'nalishi yoki dasturi(kurs) bo'yicha fanlarni o'qib o'rganishi va o'zlashtirishi uchun sarflangan o'quv yuklamasining o'lchov birligidir.

Kredit – talabaniing me`yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta`lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o`lchovidir.

Talabaga kredit ma`lum bir fandanidan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o`tgandan so`nggina beriladi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo`lsak, 1869 yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerika ta`limining taniqli arbobi Charlz Eliot “kredit soat” tushunchasini iste`molga kiritdi. Shunday qilib 1870-1880 yillarda kredit soatlar bilan o`lchanadigan tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan o`qish va o`quv dasturlarini o`quv dasturlarini o`zlashtirish talabalarga o`quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta`lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi.

Ular tasdiqlagan **Bolonya deklaratsiyasiga** ko`ra:

Kredit modul tizimi aynan mustaqil ta`limga urg`u qaratgani holda asosan ikkita funksiyani bajarishga hizmat qiladi. **Birinchisi**, talabalar va o`qituvchilarning mobillogi ya`ni OTMdan boshqa OTMga to`siqlarsiz, erkin ravishda o`tish (o`qishni yoki ishni ko`chirish)ni ta`minlaydi. **Ikkinchisi**, talabaniing tanlagan yo`nalishi yoki mutaxassisligi bo`yicha barcha o`quv va ilmiy faoliyati uchun akademik yuklama – kredit aniq hisoblab boriladi. Kredit yig`indisi talabaniing tanlagan dasturi bo`yicha nimani qancha o`zlashtirganini namoyon etadi.

Biz tanlagan AQSh va yevropa modellari eng ko`p tarqalgan modellardir. AQSH kredit tizimi o`quv modulidan iborat bo`lgan 5ta mashg`ulot turi bo`yicha hisoblanadi. Bular ma`ruza va seminarlar, laboratoriya, ilmiy tadqiqotlar, amaliyot yoki stajirovkani o`tashni qamrab oladi.

Ushbu mashg`ulot turlaridan kelib chiqib, talabaga semester davomida har haftada quyidacha kredit hisoblab boriladi:

Ma`ruza va seminarlardan tarkib topgan modul = 1 soat o`qituvchi bilan auditoriyada + 2soat mustaqil o`qib o`rganish uchun

Laboratoriya moduli = 1soat ilmiy rahbar bilan ma`ruza mashg`uloti+ 1-2soat laboratoriya soati + 2soat mustaqil ta`lim uchun

Amaliyot = 3 - 4 soat ilmiy rahbar bilan amaliyot darsi yoki shuncha soat mustaqil o`qib o`rganish uchun

Ilmiy tadqiqot ishi = kredit amaliyot soati uchun

Stajirovka = iste`molchi korxonalar bilan kelishilgan shartlar bo`yicha hisoblanadi. Uni aniqlash uchun amaliyot darsining yuklamasini hisoblash tartibidan foydalaniladi.

Kredit tizimida kredit soatlar = haftalik + qo`shimcha soatlar.

Bakalavr uchun 120-130 kredit soatlar,

Magistrlar uchun 30-64 kredit soatlar ajratiladi. Quyidagi jadvalda esa baholash tartibi ko`rsatilgan.

ECTS shkalasi b`yicha ba`holash tartibi

ECTS shkalasi b`yicha	Mazmuni	5 ba`holik tizim b`yicha	100 ballik tizim b`yicha
A	Topshiriq hech qanday xatolarisiz bajarilgan	5 (a`lo)	90-100
B	Urtdan yuqori, u`ta yaxshi, ma`lum bir xatoliklariga i`yl q`yirilgan	4 (yaxshi)	80-89
C	Yaxshi, bir qancha sezilarli xatoliklar mavjud	4 (yaxshi)	65-79
D	Bilvosita k`p`lab xatolar bilan bajarilgan	3 (qoniqarli)	55-64
E	Minimal ba`holash mezoniiga t`ugri k`eladi	3 (qoniqarlican past)	50-54
FX	Kreditga ega b`lish uchun qayta ishlash lozim	2 (qoniqarsiz)	35-49
F	Kreditga ega b`lish uchun yaxshilab me`hnat qiliish kerak	2 (u`ta qoniqarsiz)	1-34

Fan dasturidan ko`zlangan maqsad, juda oddiy. OTMda dars jarayonlarini shaffof, maqsadli va reja asosida tashkil etishga erishish. Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatimiz OTM kredit modul tizimiga o`tishi bu muayyan miqdordagi kreditlarni yil, semester va fanlar taqsimlab qo`yishdan iborat emas. Afsuski ayrim OTM kredit modul tizimiga o`tishni shunday tushunishmoqda.

Agar kredit modul tizimi to'liq va to'g'ri joriy etilsa, u mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga juda katta ijobiy o'zgarishlar olib kelishini kutish mumkin. Jumladan, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida ta'limning jahon tan olgan, mukammal o'lchov birligining olib kiritilishiga, OTM o'quv dasturlarida me'yor va muvozanat paydo bo'lishiga, oliy ta'lim o'qish jarayonlari shaffofligiga, o'quv dasturlarini iqtisodiy, mehnat bozori va talabalar ehtiyojlari asosida shakllanishiga, dars sifati yaxshilanishiga va har bir talaba o'zining mustaqil o'quv dasturiga ega bo'lishiga xizmat qiladi. Agar mahalliy OTM kredit modul tizimga o'tsalaru yuqoridagi maqsadlarga erisholmasalar yoki erishishga harakat qilishmasa unda OTM larimiz tom ma'noda kredit modul tizimiga o'tgan hisoblanmaydi.

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА МОДУЛ ТАЪЛИМИНИНГ УСТУВОР ТАМОЙИЛЛАРИ

DOI: 10.53885/edinres.2021.64.15.069

Г.Эшмуродова
Педагогика фанлари номзоди
 Қарши Давлат университети
 geshmurodova72@mail.ru

Резюме: Мақолада педагогика фанларини ўқитишда модул таълими асосини ташкил этувчи устувор тамойиллар ҳақида сўз юритилган. Асосий эътибор модул таълими тамойилларининг моҳиятини ёритишга қаратилган.

Таянч тушунчалар: модул таълими, тамойил, модул таълимнинг устувор тамойиллари.

Резюме: В статье преподавание педагогических предметов рассматриваются приоритеты, лежащие в основе модульного обучения. Основное внимание уделяется освещению принципов модульного обучения.

Ключевые понятия: модульная подготовка, принцип, основные принципы модульного обучения.

Resume: The article deals with the priorities that form the basis of module training. The focus is on covering the essence of the principles of module training.

Key concepts: module training, principle, the basic principles of module training.

Педагогика фанларини ўқитиш амалиётида модул таълими устувор ўрин тутмоқда. Зеро, модул таълими педагогика фанларини ўқитишда фанни талабалар томонидан изчил, узлуксиз ва тизимли ўзлаштирилишини таъминлайди.

Педагогика фанларини модулли ўқитиш ҳам ўз тамойилларига эга. “Тамойил” тушунчаси арабчада (тебраниш, чайқалиш, ўзгариб туриш; ўзгарувчанлик, мойиллик) “бирор соҳада тартиб, қоида тусини олган нарса, тадрижий йўналиш” [1, 655] маъносини англатса, лотин тилида (асос, биринчи, ибтидо) “хатти-ҳаракатнинг биринчи ибтидоси, раҳбарий ғояси, асосий қоидаси” [2, 447] дея талқин этилади.

Педагогика фанларини модулли ўқитишда ҳам муайян тамойилларга асосланади. Улар:



Модул таълимнинг устувор тамойиллари

Қуйида педагогика фанларини ўқитишда модул таълимига хос устувор тамойилларнинг моҳияти ёритилади.